



Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

4 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 4, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST

VOLUME 4, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2021

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Раҳбар Ҳамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

«Ўтмишга назар» илмий журнали таҳрири маслаҳат кенгаши
редакционный совет научного журнала «Взгляд в прошлое»
Editorial board of the scientific journal Looking into the past

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дијором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Зияева Доно Ҳамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори, Телави
давлат университети, Грузия

Аширов Адҳам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Ағзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори, Телави
давлат университети, Грузия

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қызлар давлат педагогика
университети, Қозогистон

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент.
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Рахмонқуловова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қарши мұхандислик-иктисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
профессор, Телави давлат
университети, Грузия

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Республикаси
Фанлар академияси

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Дипломатия академияси,
Қозогистон Республикаси

Ширванова Тарана Амирата кызы
тарих фанлари номзоди, доцент
Азербайджон давлат
иктисодиёт университети

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Саипова Камола Давлаталиевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Россия ФА, Санкт-Петербург
Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор
Давлат тарихи институти, Қозогистон

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор
Ал-Фаробий номидаги Қозогистон
Миллий университети, Қозогистон

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Исмайлова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)

Талапов Баҳриддин Алижанович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори
(PhD)

Page Maker | Верстка | Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Яраш Ғаффоров ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА АХБОРОТ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА ИННОВАЦИЯЛАР.....	4
2. Жуммагул Абдураҳмонова, Улугбек Исмоилов ЎЗБЕКИСТОНДА ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИКНИНГ ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ.....	11
3. Жавлонбек Бегалиев ЎЗБЕКИСТОНДА МУАЛЛИФЛИК ҲУҚУҚИ ТАРИХИ (1940-1950 йиллар).....	18
4. Ҳамза Жўраев БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИДА СОВЕТЛАРНИНГ МАДАНИЙ ИНҶИЛОБ СИЁСАТИ ВА УНИНГ МОҲИЯТИ.....	24
5. Jahongir Inoyatov JAHON FOTOSURAT TARIXINI O'RGANISHGA DOIR ILMIY YONDASHUVLAR EVOLYUTSIYASI.....	31
6. Жамшид Кўчаров АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА БУХОРОНИНГ ИЧКИ ВА ТАШҚИ САВДОДА ТУТГАН ЎРНИ.....	37
7. Айгуль Раимова ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН КЕЙИН ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ ВА ФАН.....	45
8. Шоҳсанам Сулаймонова ШАРОФ РАШИДОВ СИЁСИЙ ПОРТРЕТИГА ЧИЗГИЛАР.....	51
9. Солежон Тошев ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЭНГ ЯНГИ ТАРИХИНИ ТУРКИЯДА ЎРГАНИЛИШИ.....	57
10. Фарҳод Усманов XX АСР 20-30 ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА БОЛАЛАР ҚАРОВСИЗЛИГИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ИЧКИ ИШЛАР МУАССАСАЛАРИ ФАОЛИЯТИ.....	63
11. Шуҳрат Құдратов XIX АСР ОХИРИ - XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДАГИ БОЗОРЛАР ФАОЛИЯТИ.....	72
12. Сулаймон Ҳайдаров ЎҚУВЧИЛАРДА ТАРИХИЙ ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ.....	78

ЎТМИШГА НАЗАР ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

Jahongir G'opurjonovich Inoyatov,
Chirchiq Davlat Pedagogika Instituti
“Tarix” kafedrasи doktaranti (PhD)
Inoyatov.jaxongir.1989@mail.ru

JAHON FOTOSURAT TARIXINI O’RGANISHGA DOIR ILMUY YONDASHUVLAR EVOLYUTSIYASI

For citation: Jakhongir G. Inoyatov. EVOLUTION OF SCIENTIFIC APPROACHES TO THE STUDY OF THE HISTORY OF WORLD PHOTOGRAPHY. Look to the past. 2021, vol. 4, issue 5, pp.31-36

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-5-5>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muallifning maqsadi jahon fotosurati tarixini o’rganish orqali shu sohadagi ilmiy yondashuvlar evolyutsiyasini yoritib berishdan iborat. Maqolaning asosiy muhim jihatи fotosurat tarixini chuqur o’rganish orqali tarixda bo’lgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish bilan hozirgi zamonaviy texnologiyalarning shakllanishini har tomonlama tugal fikrlar orqali bildirishda namoyon bo`ladi.

Shuningdek, izlanishlar orqali mavjud tarixiy fotosuratlar tahliliy o’rganilib, fotosurat evolyutsiyasi bo`yicha asosli ma`lumotlar keltirilgan va zamonaviy fotosuratlar vujudga kelishi yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: jahon fotosurati, ilmiy yondashuvlar evolutsiyasi, ilmiy izlanishlar, zamonaviy texnologiyalar.

Джахонгир Гонуржонович Иноятов,
Докторант кафедры «Истории»
Чирчикский педагогический института,
Inoyatov.jaxongir.1989@mail.ru

ЭВОЛЮЦИЯ НАУЧНЫХ ПОДХОДОВ К ИЗУЧЕНИЮ ИСТОРИИ МИРОВОЙ ФОТОГРАФИИ

АННОТАЦИЯ

Цель автора в данной статье-пролить свет на эволюцию научных подходов в этой области путем изучения истории мировой фотографии. Основной важный аспект статьи проявляется в изложении истории фотографии через всестороннее обобщение формирования современных технологий с анализом научных исследований, которые были в истории путем глубокого изучения.

Кроме того, в результате исследований аналитически изучаются существующие исторические фотографии, приводятся обоснованные данные об эволюции фотографии и освещается возникновение современной фотографии.

Ключевые слова: мировая фотография, эволюция научных подходов, научные исследования, современные технологии.

Jakhongir G. Inoyatov,
Chirchik State Pedagogical Institute doctoral students (PhD)
Inoyatov.jaxongir.1989@mail.ru

EVOLUTION OF SCIENTIFIC APPROACHES TO THE STUDY OF THE HISTORY OF WORLD PHOTOGRAPHY

ABSTRACT

The author's goal in this article is to shed light on the evolution of scientific approaches in this field by studying the history of world photography. The main important aspect of the article is shown in the presentation of the history of photography through a comprehensive generalization of the formation of modern technologies with the analysis of scientific research that has been in history through in-depth study.

In addition, as a result of the research, existing historical photographs are analytically studied, reasonable data on the evolution of photography is provided, and the emergence of modern photography is highlighted.

Index Terms: world photography, evolution of scientific approaches, scientific research, modern technologies.

1. Dolzarbliji:

Tarixiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aynan XIX asrning birinchi yarmiga kelib, fotosurat sezilmaydigan tarzda o'zining muqobil taraqqiyot bosqichini shakllantirdi. Jahon fotosurat tarixini rivojlanishi bilan "Fotosurat sivilizatsiyasi"ga asos solindi desak xato qilmagan bo'lamic. Ushbu sivilizatsiyaning o'ziga xos tomoni shundaki, fotosuratning insoniyat tarixini yoritishdagi o'ziga xos usullari va mexanizmlarni ishlab chiqishda bu davr o'ziga xos ma'no-mazmun kasb etdi. Shuni ta'kidlash kerakki, agar tarix sohasidagi ilmiy tadqiqatlarda fotosuratning tarixiy voqeliklarni yoritishdagi ob'yekтив imkoniyatlarini o'rGANISHGA alohida e'tibor berilgan bo'lsada, ularda fotosurat tarixini o'rGANISHNING nazariy va empirik asoslarga ega bo'lgan tarixiy dalillar va konsepsiyalarni boyitishdagi o'rni tarixnavis olimlar tomonidan yetarli darajada yoritilmagan. Buning sababi shundaki, zamonaviy ijtimoiy yo'naltirilgan axborot makonida fotografiya alohida ahamiyat kasb etishi va uning har bir xalq, millat yoki elat tarixiy taraqqiyot davrlarini yoritishdagi ta'sirini o'rGANISHGA doir ilmiy izlanishlarga kam e'tibor berilmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimiz tarixiga doir muhim fotolavhalarni o'ziga xos jihatlarini o'rGANISH dolzarb ahamiyatga ega.

Zamonaviy hayotni fotosuratsiz tasavvur qilish qiyin va shu bilan birga, odam o'zini o'rabb turgan vizual tasvirlar bilan to'yingan holda hayot kechiradi. Kundalik hayotimizga mahkam o'rnashgan fotosuratlar tarixiy haqiqatlarni o'z qonunlariga muvofiq ravishda ifoda etadi. Shu munosabat bilan jahon fotosurat tarixini, uning mazmuni va ishslash mexanizmlarini o'rGANISH mavzusi alohida ma'no kasb etadi. O'tmisning o'ziga xos "muktublari" bo'lgan ushbu oq-qora fotosuratlar turli xalq, millat yoki elat vakillarining yuz ifodalari, liboslar, turmush tarzi, davr ruhini ifoda etishi b'ilan alohida ajralib turadi. 1839 yildan to hozirgi kungacha bo'lgan davrda sakkiz yoki to'qqiz avlodning hayoti, uning vizual tajribasi fotosuratlarni o'z ichiga oladi. Fotosuratlarda inson o'zini, oilasini, atrofidagi dunyoning parchalarini - qaytarib bo'lmaydigan va sezilmas shakldagi o'tmisning muayyan daqiqalarni ko'radi. Fotografiya amaliyotining odamlar hayotidagi o'rni tobora ortib borayotganligi sababli tashqi dunyo bilan o'zaro aloqada bo'lish tajribasi sifatida fotosuratning ahamiyati ham tobora oshib bormoqda. Shu boisdan ham ushbu maqola jahon fotosurat tarixini o'rGANISHGA doir ilmiy yondashuvlar evolyutsiyasini turli ilmiy dalillar va tarixiy xujjat asosida yoritishga xizmat qilishi bilan alohida ajralib turadi.

2. Metodlar va o'rGANILGANLIK DARAJASI:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda jahon fotosurat tarixini o'rGANISHGA doir

ilmiy yondashuvlar evolyutsiyasining tarixiy va madaniy xususiyatlari ko'rsatilgan. Dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida, xususan, real tarixiy voqeliklarning fototasviriy talqini O'zbekiston tarixi bilan bog'liq fotosurat namunalaridan samarali foydalanish borasida AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy va Rossiyada olib borilgan tadqiqotlar natijalari mazkur tadqiqot uchun o'ziga xos metodologik asos vazifasini o'taydi. Shunday qilib, bugungi kunda tarixiy fotosuratlarning nazariy, uslubiy va terminologik bazasini yaratish, uni barcha mavjud fotografik materiallar orasida tarixiy haqiqatni aniqlash usullari, tarixiy voqeliklarni ichki tasniflarni yaratish va ba'zi tarixiy fotosuratlarni tanqidiy tahlil qilish xususiyatlarini aniqlash dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu esa fotosuratga olish vaqtini va texnologiyasini hisobga olgan holda tarixiy fotosuratlarni chuqur o'rGANISH, ularni muhim ilmiy tadqiqotlar uchun ishlatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

3.Tadqiqot natijalari:

Tarix sohasidagi ilmiy izlanishlardan ma'lum bo'ladiki, fotosurat tarixi yozishga dastlabki urinishlar uning yaratilishidan biroz vaqt o'tib amalga oshirilgan. Fotosurat kashf etilgani (u vaqtida dagerrotip) haqida axborot aynan 1839 yil 7 yanvarda Fransiya fanlar akademiyasida rasman e'lon qilingan. Chunki shu kuni Fransiya Fanlar akademiyasining yig'ilishida fizik Dominik François Arago kimyogar Lui Dagerning ishi to'g'risida ma'ruza qildi, natijada tasvirning izini (daguerreotip) olish usuli ishlab chiqildi[1]. Shu kuni insoniyat fotografiya davriga qadam qo'ydi. Daguerre usuli (daguerreotip deb ataladi) kumush yodidning nurlanishiga asoslangan fotografik jarayon edi. Amalda, u kamerani obssura bilan tasvirni kumush mis plitaga proektsiyalashdan iborat bo'ladi. Oldindan yod bug'ida saqlanadigan plastinka keyingi bosqich sifatida simob bug'i bilan ishlov berilishi kerak. Shundan so'ng, rejalshtirilgan ob'yektning fotosurati olinadi. Shu tarzda olingan tasvirlar (daguerreotiplar) zamонавиј fotosuratlarga emas, balki oynadagi aksga o'xshaydi. Ularning tasviri kumush va simobning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'lgan amalgamadan iborat, shuning uchun dagerreotip ko'pincha "xotira bilan oyna" deb nomlangan. Ko'rish paytida plastinkaning yorug'lik manbai tomon burilishiga qarab, dagerreotip ijobiy va salbiy sifatida ko'rinishi mumkin. Bu noqulaylikni keltirib chiqaradi, odatdagи otishni faqat ma'lum bir burchakdan ko'rishga imkon beradi, ammo shu bilan birga tasvir haqiqati xayoliyligini yaratadi. Daguerreotiplarning reproduksiyalari ularning tashqi qiyofasini ko'rsatmasdan, ularning tasviri haqida faqat umumiyo tasavvur beradi[2].

Birinchi fotokameranering vazni 50 kilogramm bo'lgan, plitalari 16,5 × 21,5 santimetr bo'lgan. Bundan tashqari, bunday uskunalar juda qimmat edi. Shu sababli, Dager va uning hamrohi Nelslarning ixtirolari keng omma mulkiga aylanish imkoniyati yo'q edi. Fransua Arago 1839 yil 7-yanvarda birdaniga ikkita fransuz akademiyasining (Fanlar akademiyasi va Tasviriy san'at akademiyasi) yig'ilishida daguerreotip haqida ajoyib ma'ruza qiladi. O'z hisobotida Arago fotokameradan foydalanish oson va har kim bunday fotosuratlarni olishi mumkinligi haqida fikr yuritdi. Buning uchun ozgina mashq qilish kerakligini ta'kidlaydi. Shov-shuvli ma'ruza butun mamlakatga tarqaladi va o'sha kuni birinchi dagerreotip kamera 25000 dollarga sotiladi. Aragoning sa'y-harakatlari tufayli o'sha 1839 yil yozida yangi texnologiyaga bo'lgan barcha huquqlar Fransiya hukumati tomonidan sotib olinadi va shu bilan fotografiya jihozlarini ishlab chiqaruvchilarning barcha moliyaviy muammolari hal qilinadi. Va shu bilan birga dagerreotip jamoat mulkiga aylantiriladi.

Shu o'rinda aytish joizki, insoniyat Dominik Fransua Aragoning o'z davri uchun inqilobiy texnologiyani rivojlantirishga qo'shgan hissasini yuqori baholadi. Uning ismi Eyfel minorasining birinchi qavatida joylashgan Fransiyaning eng buyuk olimlari ro'yxatiga kiritilgan. 1935 yilda IX Xalqaro ilmiy va amaliy fotosuratlar kongressining qarori bilan uning ma'ruza qilgan kuni (1839 yil 7 yanvar) fotosurat ixtiro qilingan kun deb ataladi[3].

1841 yilda Isidor N'eps o'zining "Adolatsiz ravishda dagerrotip deb nomlanganning ochilish tarixi" («Historique de la decouverte inopremment nomme daguerreotype») nomli kitobini yozadi[4]. Shu yilning o'zida geolog va fotosurat tarixini yozgan olimlardan biri bo'lgan Robert Xant "Fotosurat san'ati bo'yicha mashhur traktat" («A Popular Treatise on the Art of Photography») nomli fotosurat tarixi va texnikasiga bag'ishlangan kitobini yozgan. Shunday qilib XIX asrning ikkinchi yarmida fotosurat tarixi ilmiy izlanishlar markazidagi tadqiqot ob'yektiga aylandi. Ammo bu yo'nalishdagi jiddiy va samarali tadqiqotlar XX asr o'rtalaridan boshlangan va institutsional asosga ega bo'lgan,

deb aystsak to'g'ri bo'ladi. XX asr o'rtalariga qadar bo'lgan fotosurat haqidagi nazariy va tarixiy dalillar, unga nisbatan hukmron kayfiyat va unda yuz bergan o'zgarishlar haqida mulohaza yuritishga keng imkon beradi.

XIX asrning ikkinchi yarmida fotosuratning asosiy va muhim jihatni sifatida uning voqelikni bevosita va xolis qayta yaratish qobiliyati bilan alohida ajralib turgan. Fotosurat avvalo tarixiy hujjat, daliliy ashyo sanalgan. Shu boisdan ham fotosurat tarixining dastlabki o'n yili "ilmiy, jamoaviy hatto shaxsiy taraqqiyot boshqaruv va aqliy faoliyatning barcha jabhalarida tobora vizuallashib borayotgan axborotga bog'liq bo'lib borayotgan" [5] bir davrga to'g'ri keldi.

Fotosuratning asosiy roli vizual axborotni tarixiylik kontekstida dalillash, o'tmishni chuqur o'rganish va tizimlashtirishga imkon beruvchi tarixiy voqelikning katalogini yaratishdan iborat bo'lgan. Mazkur davrda fotosurat asosan fan, jamiyat va boshqaruv tizimi rivojiga xizmat qiluvchi texnologik kashfiyot sifatida qabul qilingan. Ehtimol shu sababli ham XX asr boshidan to 1930 yilgacha fotosurat tarixi asosan texnologiya tarixi pozitsiyasidan turib baholangan. XIX asr oxirlariga kelib fotosurat alohida san'at turi sifatida e'tirof etila boshlandi. Bu davrga kelib fotosuratning tijoriy shakllari ommalashib ketgan ham edi.

Valter Benyamin o'zining 1931 yilda yozgan "Fotosuratning qisqa tarixi" nomli asarida ommaviy ishlab chiqarishni va ommaboplilikni dastlabki fotosuratlarga xos bo'lgan "aurasi" dan mahrum qilinganlikda ayblaydi. Bu bosqichda fotosuratga nisbatan turli pozitsiyalar shakllanganligini alohida ta'kidlash mumkin. Biroq bu davrda fotosuratning turli sohalari: reportajli foto, reklamali foto, moda fotosi rivojlanganiga qaramay, tadqiqotlarning bosh masalasi fotosuratni san'at namunasi, deb hisoblash mumkinmi, fotosurat san'ati namunalari deb sanalishi mumkin bo'lgan tasvirlar fotosurat tarixi ob'yektlariga aylanib bordi, fotosurat tarixi bayoni metodikasi sifatida esa belgili nomlar va badiiy yo'nalishlar almashinuvni xronologiyasini tushunish taklif etildi. Bu davrda aksariyat tadqiqotchilarini fotosuratning ifodaviy imkoniyatlari, fotosurat tasvirining estetikasi, fotosuratning namunalarni yaratishga qobiliyati kabi savollar qiziqtirgan. Fotosurat tasviri va voqe'lik o'rtasidagi aloqadorlik avvalgidek bevosita tushunilmay qoldi, fotosurat obrazi voqelikning to'g'ridan to'g'ri qayta tasvirlanishi emas, uning to'ldiruvchisi, ba'zan esa mustaqil mavjud bo'lgan voqelik sifatida qabul qilingan.

XX asr birinchi yarmida fotografiyalar bo'yicha tarixiy nashrlar alohida fotograf yoki fotografiyanı erkin mushohadasiga (ko'pincha kinomatograf bilan bog'liq) bag'ishlangan. XX asr ikkinchi yarmi fotografiya tarixi tadqiqi metodologiyasida jiddiy o'zgarishlar davri bo'ldi, sababi, birinchidan, fotografiyalarni o'rganishning institutsionallashuvi boshlanishi, ikkinchidan esa madaniyat paradigmalarini umuman o'rganishning o'zgarishi, xususan uning hodisalaridan biri bo'lgan fotografiyalarni ham aks ettirdi. Fotografiya tarixini o'rganishdagi institutsionallashuv Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin boshlandi. Asta sekin ta'lim tizimi, muzeylashtirish, eksponatlashtirish, fotografiyalar tarixini o'rganish bo'yicha yangi fanlar tizimi yuzaga keldi.

1947 yilda AQShning Nyu-York shtati Rochesterda ixtisoslashtirilgan fotografiya muzeyi – Xalqaro fotografiya va kino muzeyi Djordj Istman Xausga asos solindi. 1952 yilga kelib u fotografiya va uning tarixini o'rganishga bag'ishlangan o'zining jurnalini nashr qilishni boshladi[6].

1970 yilda yirik xalqaro muzeylar: Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyi, Londondagi Viktoriya va Alberta muzeyi, Parijdagi Orse muzeylarida va h.k fotografiya bo'limlari ochila boshlandi. Bu vaqtga kelib, fotografiya tarixi Amerika universitetlarida doimiy fan sifatida o'qitiladigan bo'ldi[7].

Muntazam ravishda fotografiya tarixi haqida ilmiy ishlar nashr etildi. 1945 yilda Raymond Lekuyuening "Fotografiya tarixi" (R. Lecuyer «Histoire de la Photographie»), 1949 yilda Bomonta Nyuxollning "Fotografiya tarixi 1837 yildan to hozirgi kungacha" (B. Newhall «History of Photography, from 1837 to the Present») ishi qayta nashr qilindi. 1955 yilda AQShda Gelmut Gernshaymning "Fotografiya tarixi obskura kamerasidan tortib zamonaviysigacha" (H. Germesheim «The History of Photography from the Earliest Use of the Camera Obscura to the Beginning of the Modern Era»), 1958 yilda Piter Pollakning "Tasvirlar bilan bezatilgan fotografiya tarixi" (P. Pollack «The Picture History of Photography») va boshqa shu kabi kitoblar nashr qilindi.

Fotografiya tarixini yoritishda ro'y bergan o'zgarishlar sabablaridan yana biri XX asr ikkinchi yarmida gumanitar fanlar paradigmasi o'zgarishi, xususan madaniyatshunoslik sohasidagi o'zgarishlar bo'ldi. Bu ko'p jihatdan 1960 yilda madaniyatshunoslik sohasi qiziqishlarini kengaytirgan "madaniy tadqiqotlar" yo'nališining yuzaga kelishi bilan bog'liq. Endilikda u insoniyat madaniyatining ilg'or yutuqlari bilan bir qatorda inson hayotida va inson tomonidan yaratilayotgan artefaktlar bilan shug'ullana boshlandi.

Madaniyat fenomenlarini tadqiq qilish uchun turli xil yondashuvlar qo'llanila boshlandi. Bundan tashqari madaniyatning turli xil hodisalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik aniqlanib, ya'ni ularning barchasi tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bog'liqligi asoslandi. Fotografiyaning o'rganishning institutsional tizimi yuzaga kelishi, shuningdek madaniyatshunoslik tadqiqotlari paradigmasi o'zgarishi fotografiya ixlosmandlari va tadqiqotchilarini mazkur muammoga e'tiborini tortibgina qolmay, balki fotografiyaning o'zgacha idrok qilish, uni boshqa rakurslarda o'rganishga chorlaydi. Bu esa o'z navbatida fotografiya tarixini tadqiq qilish hamda tarixini bayon qilish metodlarining yangi istiqbollarini ochdi. Chunki birinchidan, fotografiyaning o'rganish san'atshunoslik diskurs bilan legitimlashtirilgan birgina badiiy fotografiya yoki tasvir chegaralaridan tashqariga chiqadi.

Fotografiya bilan turfa xil tasvirlar va amaliyotlar kompleksi sifatida, qaysilarda badiiylik kichik bir qismni tashkil qiladi xolos. Ikkinchidan, bu o'zgarishlar fotografiyaning o'rganishda turli xil yondashuvlarni qo'llashga asos bo'ldi. Xususan, 1965 yilda Pëtra Burdée tahriri ostida chiqqan "Fotografiyaning oddiy tarixi" («Un Art Moyen») fotografiyaning ijtimoiy amaliyoti va funksiyalarini tadqiq qilgan. Rollan Bartning 1964 yilda nashr qilingan "Obraz ritorikası" semiologiya nuqtai nazaridan fotografiyaning tadqiq qilinishining yorqin namunasi desak yanglishmagan bo'lamicha.

XX-XXI asrlar bo'sag'asida aksariyat tarixchi olimlar o'z e'tiborini fotografiyaga nisbatan "arxeologiya" metodining qo'llanilishiga qaratadilar, bunda maqsad "diskursiv formatsiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan barcha muassasalar sohalari, iqtisodiy jarayonlar, ijtimoiy munosabatlar"dir. Bunday yondashuv fotografiyaning tarixning turli hodisalari va jarayonlardan ajralmagan holda o'rganish imkonini bergen. XX asr ikkinchi yarmida fotografiyaning o'rganishga yondashuvlar mutlaqo o'zgarib, u vaqtarda mavjud bo'lgan fotografiyalar tarixi va metodologiyasini qayta anglash ahamiyat kasb etgan. Bunday qayta anglash jarayonida aniqlangan muammolar fotografiyaning spetsifikasini hisobga olmay qo'llangan metodologiya oqibatida yuzga kelgan. Ya'ni muayyan seriyaviylik, vaqtga bo'lgan o'ziga xos munosabat, "nuqtai nazar" omili (ayni vaqtda – syomka nuqtasi), shuningdek biror alohida olingan suratning shu davrga xos bo'lgan ma'lum bir me'yordan og'ishi, bu davrda "fotografiya" deb sanalgan ammo aniq ta'rif berilmagan.

Fotografiya nisbatan san'atshunoslik nuqtai nazaridan bo'lgan yondashuvni tanqid qilib Rozalind Krauss 1982 yilda o'zining "Fotografiyaning diskursiv makoni" nomli esesida, mazkur yondashuvga xos bo'lgan ammo boshqalarida uchramaydigan metodlarga o'z diqqatini qaratadi. Bular "ijodiy yo'l", "ijodiy meros" kabi tushunchalarni qo'llash bilan bog'liq edi[8].

Ingliz tadqiqotchisi Jefferi Betchen fotografiya tarixini an'anaviy bayon qilishning ayrim kamchiliklarini ko'rsatadi, jumladan, Yevropa va AQShda fotografiya tarixiga e'tiborning kuchliligi, kashfiyotning oldindan nazarda tutilgan diskursiv jihatini inkor qiluvchi fotografiyaning "tasodifan" paydo bo'lgani konsepsiysi, asosiy xarakteristikalaridan reproduktivlik sanalgan "noyob asar" mavzusiga berilishi shular jumlasidandir.

4. Xulosalar:

Xullas, birinchidan, an'anaviy fotografiya tarixi jiddiy muammolaridan Betchen bu jabhaning salmoqli qismi, bizning uyimizda, qalbimizda chuqur o'rinni organ, ammo kamdan kam holda muzey yoki akademiyadalarda uchraydigan kundalik fotografiyalarni tadqiqot predmetidan olib tashlanishida, deb biladi.

Ikkinchidan, fotografiyaning o'rganish metodologiyasini zamонавиy tarixshunoslik va madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlar metodologiyasi bilan muvofiqlashtirish borasida kompleks muammolar ko'zga tashlanadi. Ularni bartaraf qilish uchun birinchi o'rinda fotografiyaning o'ziga xos spetsifikasiga ega bo'lgan va o'zida turli ifodalar: obraz, ob'yekt, amaliyot, texnologiya,

kommunikatsiya usulini mujassam qilgan madaniy hodisa sifatida idrok qilish talab qilinadi. Bundan tashqari albatta bu hodisaning uni shakllantiruvchi madaniy kontekstdan ayro holda mavjud bo'lmaligini undan muntazam ta'sir olishini nazarda tutish lozim.

Uchinchidan, hozirda vaziyat o'zgaganiga ayrim zamonaviy tadqiqotchilar ishlari dalil bo'la oladi. Masalan, professor Meri Uorner Merienning "Fotografiyaning madaniyatshunoslik tarixi" (M. W. Marien «Photography: A Cultural History»), Mishel Frizo tahriri ostidagi "Fotografiyaning yangi tarixi" va boshqa shu kabi asarlar hamda ilmiy maqolalarni bunga asos sifatida keltirib o'tishimiz mumkin. Bundan tashqari institutsional xarakterdagi o'zgarishlar e'tiborli: fotografiya va muzey ko'rgazmalari bo'yicha konferensiyalar, bular faqat badiiy fotografiya bilan chegaralanmaydi va nobadiiy fotografiyalarning san'atshunoslik diskurs bilan legitimlashtirilishiga intilmaydi. Shu qva boshqa muammolar fotografiya sohasida va metodolgiyasida jiddiy o'zgarishlardan dalolat beradi.

Иқтибослар/ Сноски/References:

- [1] Raskin N.M. Joseph Nisefor Neps, Louis Jacques Mande Dagerr, William Henry Fox Talbot. L. Izd-vo Nauka. 1967. 192s.
- [2] Newspaper Culture of Uzbekiston. June 26, 1979.
- [3] Extract. Journalist who lived in our country in 1966-1991. Taken from Alexander Fitz's manuscript, Germans in Uzbekistan.
- [4] Earth Magazine, 1926, August issue.
- [5] Walter Benjamin. A brief history of photography / Sergey Romashko. - M.: «Ad Marginem Press», 2015. - 168 p.
- [6] <https://eadaily.com/ru/news/2018/01/07/etot-den-v-istorii-1839-god-doklad-arago-den-izobreteniya-fotografii>.
- [7] Burinskiy V. F. Louis Daguerre and Joseph Neps: their life of discovery in connection with the history of photography. M. | Berlin Direct-Media 2016. - 114p.
- [8] Michelle Frizo. New history of Photography // Nouvelle Histoire de la Photographie / A. G. Naslednikov, A. V. Shestakov. - SPb.: Machina, 2008. - 337 p.
- [9] Iofis E. A. Photokinotechnics. - M.: «Soviet encyclopedia», 1981. - 449 p.
- [10] Burinskiy V. F. Louis Daguerre and Joseph Neps: their life of discovery in connection with the history of photography. M. | Berlin Direct-Media 2016. 114p.
- [11] <https://garagemca.org/ru/publishing/le-photographique-pour-une-theorie-des-carts-by-rosalind-krauss>.